

**MAKROIQTISODIY BARQARORLIKNI TA'MINLASHDA PUL-KREDIT SIYOSATINI YURITISHDA INFLYATSION TARGETLASH REJIMINING AFZALLIKLARI VA XORIJIY DAVLATLAR TAJRIBASI TAHLILI**

*Fozilbek Nurali o'g'li Normurodov*

*TDIU, 2-kurs magistranti*

*e-mail: [fozilbek\\_nn@mail.ru](mailto:fozilbek_nn@mail.ru)*

**ANNOTATSIYA**

Ushbu maqolada pul-kredit siyosati instrumentlari tushunchasi, uning mamlakat makroiqtisodiy barqarorligini ta'minlashdagi o'rni va vazifasi yoritib o'tilgan. Iqtisodiy ko'rsatkichlarga ta'sir etuvchi omillar va yechimi kutilayotgan muammolarni pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida hal qilish, pul-kredit siyosati asosida makroiqtisodiy barqarorlikka erishish yo'llarini izlash, iqtisodiyotda inflatsiyani jilovlash kabi masalalar ko'rib chiqilgan.

**Kalit so'zlar:** Makroiqtisodiy barqarorlik, pul-kredit siyosati, inflatsiya, inflyatsion targetlash rejimi, foiz stavkasi.

Inflyatsion targetlash rejimi – pul-kredit siyosati rejimi bo'lib, bunda Markaziy bank inflyatsiyaning o'rta muddatli miqdoriy darajasini belgilaydi va e'lon qiladi. Bunda, pul-kredit instrumentlarini joriy inflyatsiyaning miqdoriy ko'rsatkichiga erishishga yo'naltiradi.

Makroiqtisodiyot ko'rsatlichlarga ta'sir etuvchi omillar va yechimi kutilayotgan muammolarni pul-kredit siyosati instrumentlari yordamida hal qilish ushbu muammoga chuqur yondashishga va unga ta'sir qiluvchi omillarni har tomonlama, e'tibordan chetda qoldirmagan holda o'rganilishiga sabab bo'ladi, boshqa tomondan olib qaraydigan bo'lsak, bugungi kunda pul kredit siyosati instrumentlaridan biri inflyatsion targetlash rejimi orqali iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal qilish dunyo mamlakatlari tan olgan usuldir. Shunday ekan, bunday metodlardan foydalanish mamlakatimizda ham xorij tajribalari asosida allaqachon tegishlicha "yo'l xaritasi" ishlab chiqilgan. Mamlakatimizning rivojlanishi, iqtisodiy o'sish sur'ati, inflatsion quyi darajasiga erishish orqali makrodarajada yuqori salohiyatga erishishi, bularning barchasi monetar siyosatdan tizimli foydalanish orqali amalga oshiriladi. Ushbu siyosat o'rganish mobaynida makroiqtisodiy barqarorlikka ta'sir qiluvchi mayda omillardan tortib to yiriklarigacha o'rganiladi va ularning ta'sir kuchlari aniqlanadi. Makroiqtisodiy rivojlanish shartlari muqobil ssenariylarda keltirilgan vaziyatlarning shakllanishiga qarab pul-kredit siyosati instrumentlaridan foydalanish bosqichma-bosqich belgilangan tartibda o'rganilib boriladi.


Inflyatsion targetlash rejimida pul-kredit siyosati olib borayotgan markaziy banklar aholi va tadbirkorlik sub'ektlarining inflyatsion kutilmalarini jilovlash maqsadida ularning markaziy bankka bo'lgan ishonchini mustahkamlashga hamda keng jamoatchilik bilan kommunikatsiyani rivojlantirishga katta e'tibor qaratadi.

Shu bilan birga, inflyatsion targetlash rejimida pul-kredit siyosatini yuritish ma'lum darajada erkin shakllanadigan almashuv kursi bo'lishini talab etadi va bu, o'z navbatida, mazkur rejimning ba'zi tashqi shoklarga chidamliligini oshiradi. Inflyatsion targetlash rejimining afzalliklari 2007-2009 yillardagi global moliyaviy iqtisodiy inqiroz davrida hamda Yevropa inqirozi davrida yaqqol namoyon bo'ldi.

Inqirozdan oldingi kredit «portlashlari» davrida inflyatsion targetlash rejimidagi markaziy banklar inflyatsion targetlariga erishish uchun qat'iy pul-kredit siyosati olib bordilar.


Shuningdek, ipoteka va ko'chmas mulk bozorlarida «pufaklar» hosil bo'layotgan bir paytda, inflyatsion targetlash rejimida faoliyat olib borayotgan mamlakatlarda yuqori nominal foiz stavkalarining mavjudligi inqiroz boshlangan davrda foiz stavkalarini ko'proq tushirib, bank tizimini likvidlik bilan ta'minlash va iqtisodiy o'sishni qo'llabquvvatlashga imkon berdi. Shuningdek, ushbu davlatlarda iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish uchun favqulodda zaruriy fiskal choralarga kamroq ehtiyoj sezildi.

Ayni paytda, inqirozdan oldingi davrlarda o'ta yumshoq pul-kredit siyosati olib borayotgan ba'zi davlatlar iqtisodiyotlarini inqirozdan olib chiqish, moliyaviy barqarorlikni ta'minlashda «likvidlik tuzog'i»ga duch kelib, deflyatsion xatarlarni bartaraf etish maqsadida nominal foiz stavkalarini nol foiz stavkadan ham pastga tushirishga majbur bo'ldilar. Natijada pul-kredit siyosati va moliya tizimidagi mazkur muammolar inqiroz davrida mamlakatlarning real iqtisodiy o'sish sur'atlarida o'z aksini topdi. Inflyatsion targetlash yo'lini tanlagan iqtisodiyotlar inqirozdan oldingi



davrga nisbatan bir oz pastroq iqtisodiy o'sish sur'atlariga erishgan bo'lishsa-da, global

moliyaviy-iqtisodiy inqirozdan jiddiy iqtisodiy talofatlarsiz o'tishga muvaffaq bo'ldilar.<sup>1</sup>



*Izoh: Qozog‘iston, Rossiya, Ukraina keyinchalik inflyatsiyani targetlash rejimidagi mamlakatlar guruhiga qo‘shildi.*

Masalan, 2007-yilda inflyatsion targetlash rejimida makroiqtisodiy siyosat olib borayotgan 16 davlatda o‘rtacha iqtisodiy o‘sish 4,4 foizni tashkil etgan bo‘lsa, inflyatsion targetlashdan boshqa rejimlarda siyosat yuritayotgan 16 davlatda ushbu ko‘rsatkich 7,1 foizga yetgan.

Shunday bo‘lishiga qaramay, moliyaviy-iqtisodiy inqirozning yuzaga kelishi bilan inflyatsion targetlashdan boshqa rejimlarda pul-kredit siyosati olib borayotgan mamlakatlar katta miqdorda iqtisodiy yo‘qotishlarni boshdan kechirishdi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Berkinov B.B., Mamatova F.X. Makroiqtisodiy barqarorlikni ta‘minlash yo‘llari. Ilmiy-ommabop risola. - T.: TDIU, 2011 y.
2. Michael F. Bleaney. «Macroeconomic stability, investment and growth in developing countries». Journal of Development Economics.
3. O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki. “Pul-kredit siyosatining 2020-yil va 2021-2022-yillar davriga mo‘ljallangan asosiy yo‘nalishlari”. Pul-kredit siyosati sharhlari -T.: 2019-yil.

<sup>1</sup> Manba: Markaziy banklar ma‘lumotlari asosida.